

# ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



### Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

**40 765**

121,9 %



### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

**36 772**

115,1 %



### Yangi tashkil etilgan korxonalar (2020- yilda)


**7 465**

118,6 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'nga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



# Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

6

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **25,9** foizga oshdi





■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik,  
ovchilik va bu sohalarda xizmat  
ko'rsatish

■ O'rmon xo'jaligi

■ Baliq xo'jaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


7



*Jami faoliyat  
ko'rsatayotgan sanoat  
korxonasi va  
tashkilotlarning  
umumiyligi o'tgan  
yilning shu davriga  
nisbatan **24,5** foizga  
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 8 411 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,5 % ga oshdi. Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 24,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 96,1 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 10,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,4 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 44,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 13,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,9 %) o'sishidir.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,0 foizga oshdi**




## Kichik tadbirdorlik subyektlari soni




**7,8 foizga oshdi**



## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**14,6 foizga oshdi**



## Oilaviy korxonalar




**30,8 foizga oshdi**




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




**O'tgan yilga nisbatan 10,5 foizga oshdi**



## Xususiy korxonalar



## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3 081 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,0 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – fuqarolik obyektlarini qurish o'tgan yilga nisbatan – 37,6 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,7 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari o'tgan yilga nisbatan – 30,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 29,2 %) o'sishidir.

Bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan – 97,5 % ni (jami qurilishdagi ulushi 63,1 %) tashkil etadi.

## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 10 171 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,2 % ga oshdi. Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 21,5 % ga (jami savdodagi ulushi 65,7 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 13,4 % ga (jami savdodagi ulushi 27,2 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 38,2 % ga (jami savdodagi ulushi 7,1 %) o'sishidir.



# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

10



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




## Xususiy korxonalar



# Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

11



# Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

12

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

857



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

17



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

7



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



121

yashash bo'yicha  
xizmatlar



1 668


Oziq-ovqat  
mahsulotlari va  
ichimliklar yetkazish  
bo'yicha xizmatlar

2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 789 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,6 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 8,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,2 %), yashash bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 8,0 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,8 %) o'sishidir.

# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


13



# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

14




# Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

15



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,0 foizga oshdi**



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**9,4 foizga oshdi**

## Oilaviy korxonalar



**3,4 martaga oshdi**




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan  
**2,0 martaga oshdi**



## Xususiy korxonalar




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 2 877 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 581 taga yoki 2,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 554 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 290 taga yoki 2,0 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 373 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 628 taga yoki 84,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 25 648 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 532 taga yoki 27,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 23 662 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 189 taga yoki 21,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 5 593 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 696 taga yoki 14,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.





Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 358 tani tashkil etib, ulardan 335 tasi yoki 93,6 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 46 taga yoki 14,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 39 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

### **Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni** *(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-noyabr oylarida, birlikda)*



19

**Andijon viloyatida MDH davlatlarining kapitali  
ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>72</b>	<b>47</b>	<b>25</b>
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>35</b>	<b>20</b>	<b>15</b>
<b>Belarus Respublikasi</b>	<b>7</b>	<b>5</b>	<b>2</b>
<b>Qozog'iston Respublikasi</b>	<b>6</b>	<b>2</b>	<b>4</b>
<b>Ozarbayjon Respublikasi</b>	<b>5</b>	<b>4</b>	<b>1</b>
<b>Ukraina Respublikasi</b>	<b>3</b>	<b>1</b>	<b>2</b>
<b>Tojikiston Respublikasi</b>	<b>2</b>	<b>2</b>	<b>0</b>
<b>Turkmaniston Respublikasi</b>	<b>1</b>	<b>0</b>	<b>1</b>

O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

20



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	153	173	210	299	335
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3	6	13	24	26
Sanoat	118	133	150	181	191
Qurilish	6	7	7	19	21
Savdo	9	10	19	34	44
Tashish va saqlash	4	3	2	2	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	6	6	7	9
Axborot va aloqa	0	0	0	5	4
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	2	1	3	5
Boshqa turlar	6	6	12	24	31

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

21



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

22


	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
<b>Andijon viloyati</b>	<b>335</b>	<b>207</b>	<b>128</b>
Oltinko'l	18	15	3
Andijon	26	19	7
Baliqchi	8	3	5
Bo'ston	7	7	0
Buloqboshi	11	8	3
Jalolquduq	12	7	5
Izboskan	7	4	3
Ulug'nor	7	5	2
Qo'rg'ontep'a	7	6	1
Asaka	20	15	5
Marhamat	15	8	7
Shahrixon	25	16	9
Paxtaobod	7	5	2
Xo'jaobod	13	10	3
Andijon sh.	134	66	68
Xonobod sh.	18	13	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Andijon shahrida 134 ta (jamidagi ulushi 40,0 %), Andijon 26 ta (7,8 %), Shahrixon 25 ta (7,5 %), Asaka 20 ta (6,0 %), Xonobod shahri va Oltinko'l tumanlarida 18 tadan (5,4 %), Marhamat 15 ta (4,5 %), Xo'jaobod 13 ta (3,9 %) hamda Jalolquduq tumanlarida 12 ta (3,6 %) tashkil etadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

23




2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Andijon shahri (31,1 %), Asaka (9,0 %), Shahrixon (7,1 %), Andijon (7,1 %), Oltinko'l (5,1 %), Qo'rg'ontep'a (5,1 %), Izboskan (5,0 %), Baliqchi (4,9 %), Marhamat (4,6 %), Jalolquduq (4,1 %), Paxtaobod (3,7 %), Xo'jaobod (3,6 %), Buloqboshi (3,0 %), Bo'ston (2,8 %), Ulug'nor (2,0 %), tumanlari va Xonobod shahri (1,8 %) hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)


2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Andijon shahri (24,9 %), Asaka (9,0 %), Shahrixon (7,3 %), Andijon (6,3 %), Baliqchi (5,8 %), Jalolquduq (5,4 %), Oltinko'l (5,2 %), Qo'rg'ontep'a (5,1 %), Izboskan (5,1 %), Xo'jaobod (4,8 %), Paxtaobod (4,6 %), Marhamat (4,6 %), Buloqboshi (4,2 %), Bo'ston (3,8 %), Ulug'nor (2,2 %) tumanlari va Xonobod shahri (1,7 %) ulushiga ega.



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

24



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Andijon shahri (35,6 %), Asaka (7,2 %), Shahrixon (7,1 %), Andijon (6,6 %), Izboskan (5,0 %), Oltinko'l (4,7 %), Xo'jaobod (4,5 %), Baliqchi (4,4 %), Qo'rg'ontepa (4,3 %), Marhamat (4,3 %), Paxtaobod (4,0 %), Jalolquduq (3,9 %), Buloqboshi (2,9 %), Ulug'nor (1,8 %) Bo'ston (1,7 %) tumanlari va Xonobod shahri (2,0 %) hissasiga tegishli.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
qo'shma korxona va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi**  
(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

25




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)


26



2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Andijon shahri (26,8 %), Asaka (20,1 %), Bo'ston (12,8 %), Qo'rg'ontep'a (8,8 %), Andijon (6,8 %), Shahrixon (6,4 %), Buloqboshi (3,8 %), Oltinko'l (3,4 %), Izboskan (2,8 %), Jalolquduq (2,4 %), Xonobod shahri (2,1 %), Baliqchi (1,5 %), Paxtaobod (1,5 %), Xo'jaobod (0,5 %), Ulug'nor (0,2 %) va Marhamat (0,1 %) tumanlari ulushiga ega.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistical Committee of Uzbekistan. At the top, there is a logo of the Republic of Uzbekistan and the text "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". Below this, there is a blue navigation bar with the text "Orqaga qaytish" and a link to "Korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot". The main content area has a white background with a light blue header. It contains a text input field labeled "STIR kodini kriting", a green button labeled "Agar tushunarsiz bo'sa, rasmni bosing" with a CAPTCHA code "fhucrf", another text input field labeled "Rasmdag'i kodini kriting", and a blue "Ochish" button. At the bottom, there is a blue footer bar with the text "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi 2020 yil".

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Andijon viloyati statistika  
boshqarmasi Statistik  
registrlarni yuritish bo'limi**  
Tel.: (74) 228-29-74